
Turk dunyosining ilmiy-texnik salohiyati muhokama qilindi







2023-yilning 26-29 dekabr kunlari Turkiy respublika ilmiy-texnologik tadqiqotlar kengashi (TÜBITAK) Turkiy davlatlar tashkiloti Kotibiyati ko‘magida “Mintaqaviy va global tahdidlarni yengishda turkiy davlatlarning ko‘p tomonlama ilmiy hamkorlik va hamkorlik” mavzusida ishchi uchrashuv Anqarada o‘tkazdi.”

Unda Ozarbayjon Fan fondi va Fanlar akademiyasi,Turkiyaning Ilmiy-texnologik tadqiqotlar kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qozog‘iston Fan va oliy ta’lim vazirligi hamda Milliy fanlar akademiyasi, Ta’lim va fan vazirligi va Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi, Tatariston Fanlar akademiyasi olimlari, shuningdek, ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari ishtirok etib, qardosh mamlakatlar ilmiy integratsiyasini mustahkamlash borasida o‘z fikrlarini bildirdilar.

Tomonlar o‘z davlatlarining ilmiy-texnik salohiyatini muhokama qilib, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha takliflarni ilgari surdi. Uchrashuvda tomonlar turk davlatlari o‘rtasida ko‘p tomonlama ilmiy hamkorlikni rivojlantirish orqali mintaqaviy va global tahdidlarni bartaraf etish masalalarini muhokama qildilar. Uchrashuvda Nobel mukofoti laureati, professor, doktor Aziz Sanjar onlayn tarzda ishtirok etib, bu boradagi fikrlari bilan o‘rtoqlashdi. Shundan so‘ng ishtirokchilar fan va texnologiya sohasida umumiy platformalar yaratish imkoniyatlarini muhokama qildilar. Tadbir ishtirokchilari Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘an bilan tadbirda ishtirok etishdi.

Shubhasiz, zamonaviy globallashuv sharoitida jadal rivojlanayotgan texnologiya va ilm-fan har tomonlama integratsiyalashgan aloqalarni talab qiladi. Bu borada qo‘shni davlatlar olimlari o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashayotgani, qo‘shma loyihalarni amalga oshirayotgani juda muhim.